



UDK: 32.019.52

Siroj RASULOV,

Tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

E-mail: sirojrasulov08021999@gmail.com, ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-9506-0412>

F.f.d., prof. B.Turdiyev taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVIDA XALQ ISHTIROKINING IJTIMOYIY-FALSAFIY PARADIGMASI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekistonda davlat boshqaruvida xalq ishtirokining ijtimoiy-falsafiy asoslari va uning zamonaviy demokratik jarayonlardagi o'rni tahlil etiladi. Tadqiqotda davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki hamda jamoatchilik nazorati institutlarining rivojlanishi nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi. Xalq ishtirokining kengayishi davlat hokimiyatining legitimligi, boshqaruvning ochiqligi va hisobdorligi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi huquqiy asoslar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari davlat boshqaruvida xalq ishtirokini kengaytirish demokratik taraqqiyotning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Davlat boshqaruvi, xalq ishtiroki, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, demokratlashtirish, legitimlik, ochiqlik, hisobdorlik.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ПАРАДИГМА УЧАСТИЯ НАРОДА В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируются социально-философские основы участия народа в государственном управлении в Узбекистане и его роль в современных демократических процессах. В исследовании рассматриваются теоретические и практические аспекты взаимоотношений государства и общества, участие граждан в процессе принятия решений, а также развитие институтов общественного контроля. Расширение участия населения анализируется в контексте легитимности государственной власти, открытости и подотчётности государственного управления. Также рассматриваются правовые основы, способствующие развитию гражданского общества. Результаты исследования показывают, что расширение участия народа в государственном управлении является важным условием демократического развития.

Ключевые слова: Государственное управление, участие народа, гражданское общество, общественный контроль, демократизация, легитимность, открытость, подотчётность.

SOCIO-PHILOSOPHICAL PARADIGM OF PUBLIC PARTICIPATION IN STATE GOVERNANCE IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the socio-philosophical foundations of public participation in state governance in Uzbekistan and its role in contemporary democratic processes. The study examines the theoretical and practical aspects of state-society relations, citizens' participation in decision-making processes, and the development of public oversight institutions. The expansion of public participation is analyzed in relation to the legitimacy of state authority, as well as the transparency and accountability of governance. The legal foundations supporting the development of civil society are also examined. The results of the study demonstrate that expanding public participation in state governance is an essential condition for democratic development.

Key words: State governance, public participation, civil society, public oversight, democratization, legitimacy, transparency, accountability.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida demokratik taraqqiyotning asosiy mezonlaridan biri sifatida davlat boshqaruvida xalq ishtirokini kengaytirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy siyosiy jarayonlarda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar tizimi tubdan yangilanib, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi bevosita va bilvosita ishtiroki boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat boshqaruvini inson manfaatlariga yo'naltirish, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini kuchaytirish hamda jamoatchilik nazoratini rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ham aynan davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va xalq ishtirokini kengaytirishga qaratilgani bilan ajralib turadi. Bu jarayonda fuqarolarning davlat organlari faoliyatiga nisbatan munosabati, ularning ijtimoiy faolligi hamda boshqaruv jarayonlaridagi ishtirokini ta'minlash muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, jamoatchilik nazorati institutlarining rivojlanishi va huquqiy asoslarning mustahkamlanishi davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro ishonchni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada davlat boshqaruvida xalq ishtirokining ijtimoiy-falsafiy mazmuni, uning nazariy asoslari hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalq ishtirokini kengaytirish orqali demokratik boshqaruvni takomillashtirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlat boshqaruvida xalq ishtiroki masalasi ijtimoiy-falsafiy va siyosiy-huquqiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Klassik yondashuvlarda davlat hokimiyatining legitimligi fuqarolar roziligi va ularning huquqlarini himoya qilish g'oyasi bilan asoslanadi. Jon Lakk nazariyasida davlat hokimiyati xalq irodasiga tayanishi ta'kidlanadi. Zamonaviy yondashuvlarda Robert Dal fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki va hokimiyatning hisobdorligini demokratik tizimning asosiy sharti sifatida ko'radi. Habermas esa ochiq muloqot va jamoatchilik maydonini legitim qarorlar qabul qilishning muhim omili sifatida izohlaydi. O'zbekiston ilmiy adabiyotlarida esa davlat boshqaruvini demokratlashtirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish dolzarb yo'nalish sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiy-falsafiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy

adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar tizimli o'rganilib, davlat boshqaruvida xalq ishtiroki, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar hamda jamoatchilik nazorati institutlarining rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilindi. Shuningdek, klassik va zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlar qiyosiy yondashuv asosida o'rganilib, xalq ishtirokiga asoslangan boshqaruv modelining nazariy asoslari yoritildi.

Tahlil va natijalar. Davlat boshqaruvida xalq ishtirokini kengaytirish zamonaviy demokratik taraqqiyotning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarga ko'ra, jamiyatda inson omilini ustuvor qo'yish, uning manfaat va ehtiyojlarini boshqaruv jarayonining markaziga olib chiqish davlat legitimligini mustahkamlaydi. Fuqarolarning qaror qabul qilishdagi bevosita yoki bilvosita ishtiroki nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, jamoatchilik nazorati, ochiqlik va hisobdorlik kabi tamoyillar davlat faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Demokratik islohotlar yo'li - biz uchun yakka-yu yagona va eng to'g'ri yo'ldir. Bu borada biz har kuni izlanish. damiz, yurtimiz va xorijdagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, hayo timizni, ish uslubimizni takomillashtirishga harakat qilmoqdamiz. Shuning uchun ham biz o'z faoliyatimizning birinchi kunidan boshlab "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak", "Davlat inson uchun" degan g'oyalari asosidagi siyosatni, ya'ni inson qadrini ulug'lash, uning qonuniy manfaatlarini ta'minlashni eng ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik. Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquq va erkinliklari demokratik jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida qaror topishi uchun barcha choralarni ko'rmoqdamiz"[1].

Davlat boshqaruvida xalq ishtiroki va uning legitimlik bilan bog'liqligi ijtimoiy-falsafiy tafakkurda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, ingliz faylasufi Jon Lakk tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy shartnoma nazariyasida davlat hokimiyatining asosiy manbai sifatida xalq irodasi e'tirof etiladi. Unga ko'ra, barcha insonlar tabiatan erkin, teng va mustaqil bo'lib, hech kim o'z roziligisiz boshqalarning hokimiyati ostiga bo'ysundirilishi mumkin emas. Shu bois davlat hokimiyati faqatgina fuqarolarning ongli roziligi va ixtiyoriy kelishuvi asosida shakllanishi lozim. Mazkur yondashuvga ko'ra, hokimiyatning qonuniyligi uning kuchida emas, balki xalq tomonidan tan olinishi va qo'llab-quvvatlanishida namoyon bo'ladi. Agar davlat o'z faoliyatida fuqarolarning tabiiy huquqlari – erkinlik, tenglik va mulk daxlsizligini ta'minlay olmasa, u holda bunday hokimiyat o'z legitim asosini yo'qotadi. Shu ma'noda, Lakk nazariyasi davlat boshqaruvida xalq ishtirokini ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda boshqaruvni inson manfaatlariga yo'naltirishning muhim falsafiy asoslaridan biri sifatida namoyon bo'ladi[2].

Ayni paytda, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi, ommaviy axborot vositalarining faolligi hamda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning tashabbuslari va fikrlarini amaliy qarorlarga integratsiya qilishga zamin yaratadi. Natijada, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish boshqaruv siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanadi.

Shu ma'noda, xalq ishtirokiga asoslangan boshqaruv modeli davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro mas'uliyat, ishonch va hamkorlik muhitini shakllantiradi. Bu esa demokratik qadriyatlarining mustahkam qaror topishiga hamda barqaror ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiladi. "O'zbekistonda davlat boshqaruvini takomillashtirishda asosiy e'tibor hukumatning parlament oldida hisobdorligini oshirish, hokimiyatlarning bo'linish va o'zaro tiyib turish prinsiplari asosida qurish, uning mamlakat qonun chiqaruvchi organining vakolatlarini kengaytirish, uning mamlakat siyosiy hayotidagi rolini oshirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirgan holda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini faollashtirish, mahalliy

boshqaruv imkoniyatlarini kengaytirishga hamda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirishga qaratildi"[3].

O'zbekistonda davlat boshqaruvida xalq ishtirokini kengaytirish jarayoni ijtimoiy-falsafiy paradigma sifatida yangi mazmun kasb etmoqda. Bu yondashuv inson kapitalini rivojlantirish, fuqarolik faolligini rag'batlantirish va inklyuziv qaror qabul qilishni nazarda tutadi. Xususan, ta'kidlayotgan ochiqlik siyosati hamda hisobdorlik mexanizmlari institutlar samaradorligini oshiradi. Raqamli platformalar orqali jamoatchilik fikrini yig'ish, muhokama va monitoring tizimlari qarorlar sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, mahalliy darajada ishtirok budjeti, ochiq ma'lumotlar va fuqarolik tashabbuslari ijtimoiy adolatni mustahkamlaydi. Natijada, davlat va jamiyat o'rtasida ishonch ortib, barqaror rivojlanish uchun zarur institutsional muhit shakllanadi. Shuningdek, ta'lim va siyosiy madaniyatni oshirish fuqarolarning ongli ishtirokini ta'minlaydi, manfaatlar muvozanatini kuchaytiradi, qarorlar legitimligini mustahkamlaydi, muddatli barqarorlikni ta'minlaydi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad – «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish, ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat"[4].

Davlat boshqaruvida xalq ishtiroki masalasini zamonaviy demokratik nazariya nuqtai nazaridan tahlil etganda Robert Dal qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. U demokratik tizimni faqat saylov jarayoni bilan emas, balki fuqarolarning siyosiy hayotda doimiy va keng ishtiroki bilan bog'laydi. Dalning fikricha, real demokratiya sharoitida fuqarolar qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsata olishi, turli siyosiy alternativalar mavjud bo'lishi hamda hokimiyat organlari jamiyat oldida ochiq va hisobdor bo'lishi zarur. Shu ma'noda u "poliarxiya" tushunchasini ilgari surib, uni zamonaviy demokratik boshqaruvning amaliy modeli sifatida izohlaydi. Bu modelda siyosiy raqobat va keng ishtirok fuqarolarning davlat boshqaruvida real ta'sirga ega bo'lishini ta'minlaydi. Dal yondashuvi shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvi samaradorligi faqat institutsional tuzilmalarga emas, balki fuqarolarning faol siyosiy ishtirokiga ham bevosita bog'liqdir[5].

Davlat boshqaruvida xalq ishtiroki va demokratik legitimlik masalasini zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etishda Habermas qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uning nazariyasiga ko'ra, demokratik jamiyatning barqarorligi faqat institutsional tuzilmalar yoki saylov mexanizmlariga emas, balki jamiyatda shakllangan erkin va ratsional muloqot muhitiga bevosita bog'liqdir. Habermas "ommaviy maydon" (public sphere) tushunchasi orqali fuqarolar davlat siyosatini erkin muhokama qiladigan, turli fikrlar raqobati asosida umumiy ijtimoiy pozitsiya shakllanadigan kommunikativ makonni nazarda tutadi.

Uning fikricha, agar davlat qarorlari yopiq yoki faqat ma'muriy apparat doirasida qabul qilinsa, ular jamiyat tomonidan to'liq qabul qilinmaydi va legitimlik darajasi pasayadi. Aksincha, fuqarolar fikri, jamoatchilik muhokamasi va ochiq muloqot qaror qabul qilish jarayoniga integratsiya qilinganda, davlat hokimiyati yanada asoslangan va ijtimoiy jihatdan qabul qilinadigan bo'ladi. Shu sababli Habermas demokratik boshqaruvni "kommunikativ harakat" bilan bog'lab, siyosiy qarorlar faqat kuch yoki vakolat orqali emas, balki kelishuv va oqilona muhokama orqali shakllanishi lozimligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuvga ko'ra, jamoatchilik fikri va ochiq muhokama davlat va jamiyat o'rtasidagi vositachi bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa fuqarolarning nafaqat saylov jarayonida, balki kundalik siyosiy va ijtimoiy masalalarni muhokama qilishda ham faol ishtirokini talab etadi. Natijada, demokratik boshqaruv tizimi faqat rasmiy institutlar yig'indisi emas, balki uzluksiz muloqot va ijtimoiy kelishuv asosida shakllanuvchi dinamik jarayon sifatida namoyon bo'ladi[6].

O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish jarayonida inson manfaatlarini ustuvor qo'yish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini kuchaytirish muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai

nazardan, bunday yondashuv davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqib, unda inson omilining ustuvorligini ta'minlaydi. Bu esa fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida, "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar"[7] deb belgilab qo'yilganining o'zi ham inson huquq va erkinliklari, uning qonuniy manfaatlarini himoya qilishi davlatimiz siyosatining asosini tashkil etayotganini anglatadi.

Mazkur konstitutsiyaviy norma davlat boshqaruvining mohiyatini aniq ifodalab, unda xalq irodasining ustuvorligi va davlat organlarining jamiyat oldidagi mas'uliyati asosiy tamoyil sifatida e'tirof etilishini ko'rsatadi. Shu boisdan ham bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar aynan ushbu prinsiplarni amaliyotga tatbiq etishga, davlat xizmatini inson manfaatlariga yo'naltirishga va fuqarolarning boshqaruv jarayonlaridagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilmoqda.

O'zbekistonda davlat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish va ularning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini ta'minlashning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, jamoatchilik eshituvlari ushbu jarayonning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'lib, davlat organlari faoliyati ustidan ochiq muhokama va fuqarolik nazoratini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu institut orqali jamiyat a'zolari o'zlarini bevosita qiziqtirgan masalalar yuzasidan fikr bildirish, takliflar kiritish hamda boshqaruv jarayonlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasida jamoatchilik eshituvi tushunchasi va uning tashkil etish tartibi aniq belgilab berilgan bo'lib, unda quyidagicha qayd etiladi:

davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga taalluqli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yoxud fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga daxldor masalalarni muhokama qilish uchun tashkil etiladigan yig'ilish jamoatchilik eshituvidir;

jamoatchilik eshituvini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari o'tkazishi mumkin;

jamoatchilik eshituvi turli ijtimoiy guruhlarning vakillari, shu jumladan muhokama etilayotgan masala o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan yoki daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar ishtirokida o'tkazilishi mumkin;

jamoatchilik eshituvi ommaviy va ochiq o'tkaziladi. Jamoatchilik eshituvining ishtirokchilari jamoatchilik eshituviga kiritilgan masalalar yuzasidan o'z fikrini erkin bildirishga va takliflar kiritishga haqli;

jamoatchilik eshituvining tashkilotchisi jamoatchilik eshituviga kiritilayotgan masalalar, eshituvni o'tkazish muddati va

tartibi to'g'risidagi axborotni oldindan e'lon qiladi. Bunda tashkilotchi o'z ixtiyorida, jamoatchilik eshituviga kiritilayotgan masalalarga taalluqli bo'lgan materiallardan jamoatchilik eshituvining barcha ishtirokchilari erkin foydalanishini ta'minlaydi [8].

Mazkur norma davlat va jamiyat o'rtasidagi ochiq mulqotni ta'minlash, fuqarolarning boshqaruv jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish hamda qarorlar qabul qilishda jamoatchilik fikrini inobatga olishning muhim huquqiy asosini yaratadi. Shu jihatdan, jamoatchilik eshituvlari demokratik boshqaruvning muhim instituti sifatida davlat organlari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi.

- amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, jamiyatimiz fuqarolari va har bir shaxsning, mamlakatni modernizatsiya etishda, faol ishtirokini

ta'minlash uslublarini takomillashtirish;

- shaxsning huquqiy saviyasi va madaniyatini muntazam takomillashtirib borishga erishish asosida ularda aniq hayotiy maslakga ega bo'lish va unga erishish uchun iroda erkinligini tarbiyalash;

- oila, maktab, ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda erkinlik tushunchasi uning mohiyati, shaxs erkinligining ijtimoiy mazmunini kishilar ongga va qalbiga singdirishni eng sodda mexanizmini yaratish;

- erkinlik, burch va mas'uliyat uyg'unligini ta'minlashning ma'naviy

axloqiy negizlarini mustahkamlab borish;

- ishlab chiqarish va mehnatga munosabatda mas'uliyat va mas'uliyatsizlikni ijtimoiy oqibatlarini ilmiy prognozlash va mehnatga ongli munosabatni tarbiyalash;

- milliy g'oya va istiqloq mafkurasini insonparvarlik tamoyillarini har bir shaxs ruhiyatiga singdirish, iqtisodiyot bilan ma'naviyatning huquqiy madaniyat bilan ma'rifat hamda mafkura bilan uyg'unligini ta'minlash orqali ularda mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirish va takomillashtirib borishni talab etadi. Yuqoridagilarni hayotga tatbiq etish har tomonlama barkamol rivojlangan shaxsning dunyoqarashini yanada boyitishga ularda shaxs ma'naviy kamolotida erkinlik va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unligini mohiyatan anglab yetishiga imkon beradi[9].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda davlat boshqaruvida xalq ishtirokini kengaytirish zamonaviy demokratik taraqqiyotning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy-falsafiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat va jamiyat o'rtasidagi uyg'un munosabatlar, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi faolligi hamda jamoatchilik nazoratining kuchayishi boshqaruv tizimining ochiqligi va samaradorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvida xalqning ishtirokini kengaytirish jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlab, barqaror ijtimoiy rivojlanish va samarali boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2022. - B. 20.
2. Locke J. Two Treatises of Government. - Cambridge: Cambridge University Press, 1988. - P. 95.
3. Ўзбекистонда 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси натижалари. -Т: Factbook.- Б.11.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола. -Т: "Маънавият", 2017. - Б.8.
5. Dahl R. Polyarchy: Participation and Opposition. - New Haven: Yale University Press, 1971. - P. 1-5.
6. Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere. - Cambridge: MIT Press, 1989. - P. 27-36.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2023. -B.4
8. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474-sonli qonuni// <https://lex.uz/docs/-3679092>
9. Hakim To'xtayev. Ijtimoiy Falsafa. Darslik. -T.: "Ma'rifat", 2023. -B.197-198.
10. Turdiev, B. S. (2025). International Experience in Implementing Public Control. Asian Journal of Basic Science & Research, 7(4), 93-99.